

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BADIY TAHLIL
KO'NIKMALARINI XALQARO TADQIQOTLAR ASOSIDA BAHOLASH**

*Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi
boshlang'ich ta'lim fani metodisti.*

Mirzabekova Nargiza Qoraqulovna

Annotatsiya: *Ushbu maqola PIRLS xalqaro baholash dasturi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining "Izza-bir qoshiq jizza" matnini o'qib uni tushunish darajasini xalqaro miqyosda belgilab, matnini badiiy tahlil qilishga qaratilgandir.*

Аннотация: *В данной статье ставится задача определить международный уровень понимания текста «Иzza-ложка джизы» учащимися начальных классов посредством международной оценочной программы PIRLS и художественного анализа текста.*

Abstract: *This article aims to determine the international level of understanding of the text "Izza- a spoonful of jizza" by primary school students through the PIRLS international assessment program and artistic analysis of the text.*

Kalit so'zlar: *PIRLS dasturi, matnni o'qish, badiiy tahlil qilish.*

Ключевые слова: *программа PIRLS, чтение текста, художественный анализ.*

Key words: *PIRLS program, text reading, artistic analysis.*

KIRISH

Taraqqiyot sari odimlayotgan har qanday mamlakat rivoji bilan qiziqadigan bo'lsak, albatta, ta'lim sohasiga tikilgan sarmoya hamda e'tibor asosiy omil sifatida yuzaga chiqadi. Hech kimga sir emas, ta'limning poydevori bo'lmish boshlang'ich ta'limda hozirgi kunda yangicha yondashuvlar asosida darsliklar ishlab chiqilayotgani, moddiy va texnik jihatdan yetarli bazaning shakllanganligi ta'limda oldinga qarab odimlashning bir faktori bo'lmoqda. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarida yodlash bilan kifoylanib qolmasdan, balki matnni o'qib tushunish, uni tahlil qila olish qobiliyatini ham rivojlantirish asosiy maqsad qilib olinganligi ahamiyatga molik sanaladi. Hozirgi kunda xalqaro tadqiqotlarda O'zbekistonning ishtiroki doirasida (ilk bora PIRLS xalqaro tadqiqotida 2021-yil) amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarning natijasini 2026-yilda ikkinchi bora ishtirokida bilish mumkin. Bu jarayonda o'quvchilarida o'qish savodxonligi hamda badiiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha turli xildagi qo'llanmalardan, monografiyalardan hamda ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanish samarali natijalarga erishishga yordam beradi. Shu o'rinda, ushbu tadqiqot ishida yoritilgan "Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning badiiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish" yuzasidan qilingan ilmiy-nazariy ishlar, yangicha metodikalar ayni vaqtda yurtimizning xalqaro tadqiqotlar ishtirokiga tayyorgarlik davrida qo'l kelishi bilan xarakterlanadi. Metodik tavsiyamizda DTS asosida "O'qish savodxonligi" darslarini o'qitishning bosh maqsadi o'quvchilarda mustaqil fikrlashni, ijodiy fikr mahsulini yozma, og'zaki shakllarida to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish, kommunikativ savodxonligini ta'minlashdan iborat. Demak, biz tanlagan ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligi ham ana shu zaruriyat

bilan belgilanishini o'rganish bo'yicha o'zimizning fikrlarimiz, takliflarimiz, tavsiyalarimiz bilan bo'lishdik.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BADIY TAHLIL KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

O'zbekiston mustaqillik yillarida iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy rivojlanishning o'ziga xos yo'liga ega bo'ldi. Bu yo'ldagi chuqur o'zgarishlar barcha jabhalarga shiddat bilan kirib kelmoqda.

1. Ta'lim sohasida bo'layotgan tub o'zgarishlar, barcha yo'nalishlarda bo'lgani kabi boshlang'ich ta'limga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Boshlang'ich ta'limni rivojlantirish, o'quvchilarni yetuk, bilimli qilib o'qitish va tarbiyalash avvalam bor, shu soha o'qituvchilarini o'z sohalari bo'yicha kuchli qurollangan, yaxshi bilimga, tushuncha va metodikaga ega bo'lishlarini talab etadi.

2. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogikadan yaxshi xabardor, pedagogik mahoratga ega, metodikadan o'z tushunchasiga ega, bolalar psixologiyasini yaxshi biladigan, bolalar bilan o'zaro aloqaga yaxshi kirishadigan, xushmuomala, ota-onalar bilan yaxshi munosabat o'rnatadigan bo'lishi kerak. 1R.Mavlyanova, N.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. Toshkent "Voris Nashriyot" 2013. 239 bet. 3-bet. 2www.bestreferat.uz Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti darsligida o'qituvchiga quyidagicha ta'rif keltirilgan: "O'qituvchi - guruhdagi o'quv tarbiya jarayonining tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars vaqti, darsdan tashqari va tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, o'tkazish, o'quvchilarga kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbai bo'lishi lozim"³. Demak, o'qituvchi dars jarayonining asosiy yo'l boshchisi hisoblanar ekan. Shu bilan birga maktab ta'lim tizimining ham o'z oldiga qo'ygan vazifalari mavjud. Bu vazifalar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar umumiy rivojlanishining o'sganligi, psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar sinfda o'qish mazmuni va o'qitish metodlariga o'zgartirish kiritishni talab etmoqda. Shularga bog'liq holda badiiy asarni tahlil qilish metodikasi takomillashtirila borildi: takkroriy bayon qilish mashqlari kamaytirildi, ijodiy va o'qilgan matn yuzasidan o'z fikrini bayon qilib, mustaqil fikrlash ko'nikmasini o'stiradigan mashqlar ko'paytirildi, asar qismlari ustida emas, balki yaxlit asar ustida ishlanadigan bo'ldi, asar g'oyasi va obrazlarini tushuntirishda o'quvchilarning mustaqilligi, ijodkorligi ortdi. Matn ustida ishlashda xilma-xil topshiriq turlaridan, turli jadval va diagrammalardan, ta'limda texnika vositalaridan va ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan ko'proq foydalanila boshlandi. Quyida badiiy asar boshlang'ich sinflarda metodik qoidalar asosida tahlil qilinishini ko'rib chiqamiz:

1. Asarning mazmunini tahlil qilish to'g'ri, tez, ifodali va ongli o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushunishga doir topshiriq o'qish malakalarini takomillashtirish topshirig'i hamdir.)

2. Asarning mavzusi va g'oyaviy asoslarini, uning obrazlari, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning yetuk shaxs sifatida kamol topishida alohida ahamiyatga ega, shuningdek, o'quvchining bog'lanishli nutqini o'sishi(lug'atining faollashishi va boyishi)ni ta'minlaydi.

3.O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayangan holda asarning mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o'qishga o'quvchilarning umumiy bilish faoliyatini aktivlashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning yaxshi natija beruvchi vosita sifatida qaraladi. Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo'lgan muhim omillardan biri uning o'quvchilarga ko'rsatadigan hissiy ta'siridir. O'quvchilar asar muallifining asosiy fikrini tushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqealardan o'quvchi ham hayajonlansin. Matnni tahlil qilish o'quvchida fikr qo'zg'atishi, hayotiy tajribasining asar muallifi qayd etgan dalillarga to'g'ri kelish – kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlilning davomida asarning badiiy go'zalligi, estetik qiymati ham alohida qayd qilib o'tiladi.

3.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent.2019. 295 bet.7-bet O'qish metodikasi adabiyotshunoslik, pedogogika, psixologiya ishlab bergan nazariy qoidalarga asoslanadi.

Sinfda o'qishni to'g'ri uyushtirish uchun o'qituvchi badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlarini, ta'limning turli bosqichlarida o'qish jarayonining psixologik asoslarini, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning matnni idrok etish va o'zlashtirish xususiyatlarini ham hisobga olish kerak. O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining real hayotiy voqealarni qanday badiiy obrazlar, badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasi o'uvchilar sinfdan-sinfga o'tgan sari o'stirib boriladi. O'quvchilar badiiy asardagi adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning g'oyasi, mazmuni va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar. O'quvchilar asardagi adabiy tushunchalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar. Asarda adabiy tushunchalarni shakllantirish bilan birga o'quvchilarning nutqini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda asarni badiiy tahlil qilish jarayonida quyidagi adabiy janr turlari: hikoya, ertak, doston, she'r, rivoyat, masal, maqol, topishmoq bilan birga o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a bilan ham amaliy tarzda tanishtiriladi. Badiiy asarni tahlil qilish orqali o'quvchilarda ona tiliga hurmat va muhabbat hissi, asar g'oyasini chuqur anglab idrok etishga zamin hozirlaydi va asarni ongli o'qish ko'nikmasi ham o'stiriladi, o'quvchining nutqi rivojlantiriladi. "O'qish savodxonligi - jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va insonlar tomonidan ulug'lanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. O'quvchilar matnlardan turli shakllarda ma'no olishlari mumkin. Ular maktabda va kundalik hayotda o'quvchilar jamoalarida qatnashish va zavq olish, o'rganish uchun o'qiydilar". Badiiy asarning o'quvchilar tomonidan idrok etish darajasi kitobxonlik faoliyati natijalari tahlili asosida belgilanadi. Adabiy ta'lim jarayonida asarning to'liq idrok etilishi adabiy tushunchalarning chuqur egallanganligidan dalolat beradi. Ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish hamda tajriba-sinov ishlari narijasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun adabiy tushunchalar asosida badiiy asarni idrok etishni to'rtta darajasini ajratishni lozim topdik. O'qish metodikasi masalalari bilan o'zbek metodist olimlaridan K.Qosimova, S.Matchonov, A.Zunnunov, T.G'afforova , M.Yusupov, Q.Abdullayeva, M.Umarova va rus metodistlaridan M.S.Vasileva, N.N.Svetlovskaya, T.G.Ramzayev,

M.I.Omorokova, V.G.Goreskiy, L.A.Gorbushina, K.T.Golenkina, N.S.Rojdestvenskiy, E.A.Nikitinalar atroflicha shug'ullanganlar. Professor K.Qosimova va S.Matchonovlarning o'qish metodikasiga doir ishlarida o'quvchi ta'limning faol ishtirokchisi, "metodik omil" sifatida tilga olinishi bejiz emas. Ularning fikricha, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni malakali kitobxon sifatida tarbiyalashda asar tahlili va o'quvchining shaxsiy ijodkorlik qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida she'r, masal, hikoya, topishmoq, maqol, badiiy qahramon, sarlavha, matn, reja kabi dastlabki adabiy tushunchalarni shakllantira borishni taqazo etadi. Shu maqsadga qaratilgan badiiy tahlil o'qituvchi va o'quvchining qat'iy reja asosida izchil hamkorlikda izlanishini talab etadi. Busiz o'quvchi dasturda ko'zda tutilgan darajada asarni estetik jihatdan anglash va idrok etishga qodir bo'lmaydi. Tahlilda umumiydan xususiyga, ya'ni asarni tushunishga yordam beruvchi umumiy mazmunni va tafsilotlarni aniqlashga tomon borish lozim. Tahlil boshida asarning janriy xususiyatlarini hisobga olgan holda beriladigan savollarni o'quvchilarning mavjud tushunchalaridan kelib chiqib izchil va keng qamrovli tarzda qo'yish talab etiladi. Shu asosida, o'quvchilarning fikr va hislari muayyan maqsadga yo'naltirilsa, boshlang'ich ta'limda ko'zlangan natijaga erishish qiyin kechmaydi. Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar badiiy asarni tahlil qilishga turli yondashishlar mavjudligini ko'rsatadi. Ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz. Asar tili tahlili bu asarda muallif tomonidan qo'llanilgan tasviriy ifoda vositalari hamda qahramonlar nutqi va ularga yozuvchi munosabatini aniqlash maqsadida uyushtiriladi.

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING BADIY TAHLIL KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng boshlang'ich sinflar uchun yangi dastur va darsliklar yaratildi. O'qish dasturlarida badiiy asarni tahlil qilishga alohida ahamiyat berilib, matn ustida ishlash yuzasidan xilma-xil topshiriq turlaridan, texnika vositalaridan foydalanishga ko'proq e'tibor berildi. Har bir jamiyatning taraqqiyoti va kelajagi ta'lim tizimining jadal rivojlanishi, ijtimoiy hayot, ishlab chiqarish bilan o'zaro mutanosib kelishishi, jahon ta'limining eng yuqori natijalariga tenglasha olishi, davr talablariga javob berishi va mavjud ehtiyojlarni qay darajada qondira olishiga har tomonlama bog'liq. Asarni tahlil qilishda uning hissiy ta'sirini ham hisobga olish zarur. O'quvchi matnni o'qibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqealardan hayajonlansin. Matnni tahlil qilishda o'quvchilarda yangi fikr uyg'onsin, ularda estetik didni tarbiyalasin. Boshlang'ich sinflar "Ona tili va o'qish savodxonligi" va "O'qish kitobi" da turli janrdagi badiiy va ilmiy-ommabop maqolalar berilgan. Sizga ma'lumki, badiiy asarda hayot obrazlar orqali aks ettiriladi. Uning markazida inson, uning tabiat va jamiyatga munosabati turadi. Badiiy asarda hayotiy borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, obyektiv mazmun va subektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, asar ustida ishlashni muallifning asarida tasvirlangan voqealarga munosabati o'qituvchining diqqat markazida turadi. O'quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlarini asta tushuna boshlaydilar. Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy voqealar tasvirlanadi. Asardagi voqealarga tarixiy yondoshilgandagina asarga haqqoniy baho

berish mumkin. Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o'quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilarni asarning g'oyaviy yo'nalishini tushunishga o'rgatish muhimdir. Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda, o'quvchilar o'z shaxsiy tushunchalaridan foydalanadilar. Qahramonning boshqa fazilatlarini baholash uchun ularda so'z boyligi, tajriba yetishmaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar payqay olmagan sifatlarni ko'rsatish va o'quvchilar nutqiga kiritishdir. Yana bir narsaga e'tibor berish maqsadga muvofiq: 1.O'quvchilar asar qahramoniga munosabatlarini ifodalashda u harakat qilgan sharoitni hisobga olmaydilar.

2.Qahramonning nima uchun shunday qilishi kerakligini tushunolmaydilar, uning uchun maqsadga muvofiq ish olib borishlari zarur. Badiiy asar ustida ishlash murakkab jarayon bo'lib o'qituvchi o'qish darslarining ta'lim-tarbiyaviy vazifalari badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarligini hisobga olishni taqazo qiladi. Badiiy asarda barcha komponentlar o'zaro bog'langan bo'ladi. Asarda obrazlar rivojlanib Voqealar rivojlanib borgan sari qahramonlarning yangi-yangi tomonlari ochila boradi. Bu xususiyatlari asar ustida ishlashda uni yaxlit o'qishni, idrok etishni, ya'ni sintezni talab qiladi.

Asar boshidan oxirigacha o'qilgandan so'ng analiz qilinadi, so'ng yana yuqori sifatli sintezga o'tiladi. Asarni o'qishga kirishdan oldin o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga tayyorlash lozim bo'ladi. Demak, tayyorgarlik davri-sintez-analiz-sintez jarayonini beradi. O'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi. Tayyorgarlik ishlarining vazifalari:

1.O'quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan faktlarni o'quvchilar o'z hayotida kuzatishlari bilan bog'lay olishlariga sharoit yaratish.

2. Yozuvchining hayoti bilan tanishtirish, yozuvchiga, uning hayotiga, ijodiga qiziqish uyg'otish.

3.O'quvchilarni asarni emotsional idrok etishga tayyorlash.

4.Asar mazmunini tushunishga to'sqinlik qiladigan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini tushuntirishdan iborat. Tayyorgarlik ishlarining shakllari xilma-xil bo'lib, o'qituvchi asar mazmunini va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davri uchun 2-5 daqiqa ajratiladi. Ekskursiya. Bu ish turidan tabiat tasviriga bag'ishlangan yoki ishlab chiqarish, qurilish, shahar, qishloq hayotiga doir mavzular o'rganilganda foydalanish mumkin. Ekskursiya uchun reja beriladi va matn o'rganilishidan kamida bir hafta oldin o'quvchilarga e'lon qilinadi. O'quvchi hikoyasi. Asar muallifi haqida ma'lumot berishda eng samarali metod hisoblanadi. Chunonchi, 4-sinfda Q.Muhammadiyning she'ri o'rganilayotganda shoirning bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilib, ular haqida qisqacha ma'lumot so'zlab berilsa, o'quvchilarning asarni o'qishga qiziqishlari ortadi. Tayyorgarlik davridan so'ng 1-bosqich amalga oshiriladi. Bu bosqichning asosiy matnni yaxlit idrok etish jarayonida asarning aniq mazmuni bilan, uning syujet chizig'i bilan tanishtirish, asarning emotsional ta'sirini aniqlashdir. Matn ifodali o'qib beriladi. (3-sinfda o'rganiladigan "Oilam baxtim" matni

magnitafon orqali o'qib eshittiriladi). O'qituvchi o'quvchilarga umumiy taassurotlarini aytishni talab qiladigan savollar beradi. 1.Hikoyani qaysi o'rni sizga yoqdi? 2.Qahramonlardan qaysi biri sizga yoqdi? 3.Hikoya o'rganilganda siz qaysi o'rinda juda xursand bo'ldingiz? Kabi savollar beriladi. Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi tahlil qilishdir. Bu bosqichning vazifasi: syujet rivojining sabab-natija bog'lanishini belgilash, idrok etish shaxslarning xulq atvorini va asosiy xususiyatlarini aniqlash, asar kompozitsiyasini ochishdir. Tahlil jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi: -Tanlab o'qish -O'quvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga o'z so'zlari bilan javob berishi -O'quvchilarni savol tuzishga o'rgatish -Matnni tasvirlash -Asar rejasini tuzish. Ushbu keltirilgan tahlil turlari haqida quyida siz bilan batafsil tanishib chiqamiz. Hozir esa boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan adabiy janr turlari bilan tanishib chiqamiz. Boshlang'ich sinflarda badiiy asar turlaridan hikoya, she'r, ertak, masal, maqol va topishmoqlar amaliy ravishda o'rganiladi. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop maqolalar ham o'qitiladi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchi unga mos metodlar tanlashi talab etiladi. Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. "Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir". Hikoya mazmunan boshlang'ich sinflar uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni, odatda, savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda faktlar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi. Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar ma'nosini tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda, ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. So'z ma'nosini tushuntirishga ko'p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushunishda eng zarur bo'lgan so'zni qisqa izoh berish bilan tushuntiriladi. Hikoya o'qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qilgach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan yoki yoqmagani, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi. Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga xarakteristika, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning

xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi. Hikoyani o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g'oyani bilib olishlari uchun matn bilan ishlash jarayonida tanlab o'qish, savollarga javob berish, hikoya qismiga o'zlari savol tuzishi, so'z bilan va grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o'qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalaniladi. Kichik badiiy hikoyani izohli o'qish darsini uyushtirishda quyidagi reja varianti sxemasi e'tiborga olinadi:

1) Hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyada tasvirlangan kabi kishilar hayoti, davrga qisqa xarakteristika....);

2) Hikoyani (to'liq yoki mantiqiy tugallangan qismlarini) o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchining ifodali o'qishi;

3) Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suhbat);

4) Hikoyani qayta o'qish (hikoyani qismlarga bo'lish, o'quvchilarga o'qitish, ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);

5) Hikoyaning har bir bo'limi yuzasidan suhbat o'tkazish va sarlavha topish;

6) Hikoyaning ayrim bo'limlarini ifodali o'qish;

7) Reja asosida qayta hikoyalash;

8) Hikoyani ifodali o'qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda);

9) Hikoyani ifodali o'qish va ifodali qayta hikoyalash.

Tafakkur va til hodisalarining bir-birini taqazo etishi, bir-birisiz yashay olmasligini nazarda tutsak tafakkur sohibi tarbiyasida o'qish darsining o'ta muhim va betakror vosita ekanligini ta'kidlab o'tirishning hojati yo'q. Zero, turli sohadagi eng nodir kashfiyotlar ham birinchi galda o'qish fani yordamida zohir etiladi, o'qish darslaridan hikoya qilinadi. Ta'lim tizimida ro'y berayotgan katta o'zgarishlar, o'qitish mazmunining tobora yangi qarashlar, g'oya hamda bilimlar bilan boyitib borayotganligi, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalarning yaratilayotganligi ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bunday islohotlar albatta boshlang'ich ta'limdan boshlanishi tabiiy holdir. Boshlang'ich sinflarda asosiy ish turlaridan biri bu matn ustida ishlashdir. Keling eng, avvalo, matn hamda o'quvchilarning matnni tushunish va angash ko'nikmalarini shakllantirishdagi asosiy tushunchalardan biri o'qish savodxonligiga to'xtalib o'tamiz. "Matn (arabcha -yelka, nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst)-yozuvda yoki bosma holatda shakllantirilgan maulliflik asari yoki hujjat, bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi"5. Bundan tashqari "Matn" so'zi ko'pgina adabiyotlarda "tekst" tarzida keltirilgan. "Tekst" lotincha "texsus" so'zidan olingan bo'lib, "to'qima" degan ma'noni bildiradi6. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining asosiy bosqichi matnni tushunib, to'g'ri, ongli, ifodali o'qishga, idrok qilishga va o'qiganlari yuzasidan o'z munosabatini bildirishga tayyorlashdan iborat. Bunday natijalarga erishish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga berilgan matnlar bir necha talablar va shartlarga mos bo'lishi lozim. Matn ustida ishlash bilan o'qish malakalarini shakllantirishning o'zaro bog'liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi. Badiiy asar ustida

ishlashning 5Pedagogika ensiklopediya II jild “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat milliy nashriyoti. Toshkent – 2015-yil 259-bet 6Sharafjon Sariyev. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish. Yurist-media markazi nashriyoti. Toshkent 2010. 33- bet tayyorgarlik davrida birinchi bosqichi asar bilan tanishtirish bo‘lsa, ikkinchi bosqichi esa asarning tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo‘nalishi matnning aniq mazmuni (voqea-hodisalar rivojlanishi)ni, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, kompozitsiyasi va asar g‘oyasini aniqlash hisoblanadi. Badiiy asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asarning mazmunida uning tasviriy-ifodaviy vositalar bilan bog‘liq holda qaralganligidir. Boshqa bir asosiy qoida asarning ustida ishlash jarayonida ta‘lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy tarzda amalga oshirish sanaladi. Ushbu qoidalar asar ustida ustida ishlashni asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shuningdek, matnni tahlil qilish vaqtida o‘quvchilar bajaradigan vazifa topshiriqlarni va shu jarayonda muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi. Matn-lingvistik tadqiqotning eng murakkab ob‘ektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tushunchani ta‘riflashda barcha matnlar uchun xos bo‘lgan belgilardan kelib chiqish lozim. Bunday belgilar quyidagilar: 1) matn-yozma shakldagi axborot; 2) matn mazmun jihatidan o‘ziga xos tugallikka ega; 3) matn o‘quvchida muayyan munosabatni uyg‘otadi. Quyida sizlar bilan badiiy asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning bir qancha turlaridan foydalanilishini ko‘rib chiqamiz. 1. Tanlab o‘qish-o‘quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o‘qiydi. Vazifa esa asar mazmunini oydinlashtirish, badiiy xususiyatini ochish, sabab-natija bog‘lanishini belgilash, o‘qilgan matnga o‘z shaxsiy fikrini bildirishdan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, 4-sinfda “Ziyrak uch yigit” ertagidagi “Yigitlar sharob, kabob va hokim haqida qanday taxminlar qilganliklari berilgan joyni topib o‘qing” yoki “Oltin kuz” matnidan “Tabiatdagi o‘zgarishlar berilgan qismlarini topib o‘qing” kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Matn ustida ishlashda eng samarali usul tanlab o‘qishdir. Tanlab o‘qish turidan matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida har xil muakkablik va qiyinchilikda foydalaniladi. Bu o‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatini oshirish bilan birgalikda o‘quvchilarning ijodiy tasavvuri, zehni va nutqini o‘stirishga yordam beradi. Eng soda tanlab o‘qish asar mazmuni yuzasidan bo‘ladi. Masalan, 4-sinfda Abdulla Oripovning “Iqboli buyuksan” asari yuzasidan tanlab o‘qish uchun quyidagi topshiriqlar beriladi:

-She‘rdan ustozni hech qachon unutmaslik haqida so‘z yuritilgan o‘rinni topib o‘qing.

-Inson mehnat qilib chiniqishi zarur ekanligi tasvirlangan o‘rinni topib o‘qing.

-She‘rda “Nima sababdan Vatanni unutma” deya takrorlab yozilgan misralarni she‘rdan topib o‘qing va shunga izoh bering.

To‘lqin Hayitning “Qodir boboning orzusi” asari matni yuzasidan

“Matndan Qodir bobo Vatanimizning gulab-yashnashiga qo‘shgan hissasi haqidagi gaplarini topib o‘qing” kabi topshiriq berilishi mumkin.

Tanlab o‘qishning murakkabroq turlaridan yana biri matndan sabab-natija munosabati bilan bog‘langan dalillarni umumlashtirishni, taqqoslashni talab qiladgan o‘rinlarni topib o‘qish sanaladi. Masalan, 4-sinfda Normurod Norqobilovning “Xarita” hikoyasini o‘rganamiz. Unda topshiriqlar quyidagicha bo‘lishi mumkin.

Sinf rahbari Rasulni nima uchun Samadga biriktirib qo'ydi? Shu o'rinni topib o'qing.
Samadning Rasuldan arazlash sababi ifodalangan o'rinni topib o'qing.

Bunda o'quvchilar hikoya orqali biror qahramonning o'zini qanday tutishini, nima sababdan u shundayligini tasdiqlash uchun matndan material tanlab o'qiydi. Tanlab o'qish ifodali va ongli o'qish malakasini shakllantirishni matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish bilan uyg'unlikda olib borishga, bolalarning ijodiy tasavvurini, nutqi va tafakkuri ijobiy tomonga rivojlanishiga yordam beradi. Shu sababli bunday o'qish darslarida keng foydalaniladi. Tanlab o'qish matn rejasini tuzishda qahramonga tavsif berishda, asarning g'oyasini aniqlashda tatbiq etiladi.

Berilgan savol va topshiriqlarga o'quvchilar o'z so'zlari bilan javob berishi. Ushbu tur bo'yicha o'quvchilarda o'qiganlari yuzasidan muhokama qila olish ko'nikmasini o'stirishga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g'oyasi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga, asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savol va topshiriqlar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan va muayyan izchillikda bo'lishi, o'quvchilarni kreativlikka va mustaqil fikrlashga undashi zarur. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida savol va topshiriqlar qaysi maqsadga yo'naltirilganiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

-Asarning mazmunini o'zlashtirish hamda qayta hikoyalashga doir savol va topshiriqlar.

-Asarning tilini o'rganish va uni o'zlashtirishga doir savol va topshiriqlar. Sabab-natija ko'rinishidagi savollardan ham foydalaniladi. Agar o'qituvchi asarning g'oyasini tushunishda o'quvchilarga yordam bermiqchi bo'lgan bo'lsa, savol sabab-natija ko'rinishida bo'ladi. 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" kitobida Avera Fayziyevaning "Kuchukmi yoki itcha?" hikoyasi g'oyasi o'quvchilarni hayvonlar bolalarining qanday nomlar bilan atalishini, xatto ularning yoshiga qarab ham nomlari o'zgarishini bilib oldilar. "Muallif aytgan ma'lumotlar haqida fikr bildiring", "Nima uchun Javohir hayvonlarning nomini bilmadi?", "Siz yashaydigan joyda jonivorlarni yana qanday atashadi" kabi savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Qambar O'tayevning "Non qayerdan keladi?" she'ri asosida esa "Non nima? Uni ta'riflang", "U qayerdan kelar ekan?", "Nonni nima sababdan qadrlash kerak?" kabi savollardan foydalanish ham katta ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda savol va topshiriqlarga javob berish uchun kata o'rin berilgan. Bunda o'qituvchining vazifasi ushbu savol va topshiriqlar ustida ishlash usullarini oldindan belgilab olishdir. Ijodiy xarakterdagi savol-topshiriqlar bolani mustaqil fikrlashga undaydi. "Oyni o'g'irlashdi" matni berilgan bo'lib, bu matnda asosan ko'proq qismi rasmlardan tashkil topgan, matn yuzasidan o'quvchilar o'z fikrlarini aytishga undovchi tabiat hodisalari bilan yaqindan tanishtiruvchi "O'zga sayyoraliklar oyni Yupiter sayyorasi atrofiga yashirishgan", "Oy bo'lmasa yerda tortishish kuchi bo'lmasligini, yil fasllari almashmasligini", "Oyni topib unga raketa dvigatelinini o'rnatamiz" kabi matndagi ushbu gaplar orqali bolalar oy, sayyoralar va ularning harakati, sabab-u oqibati haqida bilib oladilar. Bu esa o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, og'zaki nutqini o'stiradi va matnni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi. Asardagi voqealar tizimiga oid savol-topshiriqlar tuzish va undan tahlil jarayonida ijodiy foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Masalan, 4-si Qudrat Hikmatning "Bahor" she'ri asosida "She'rda dastlab nimalar haqida gapiriladi?",

“Shoir bahorni tasvirlashda qanday tasviriy ifodalardan foydalangan?”, “She’rdagi fikr yuritilgan narsalarni ketma ket aytib bering” kabi savol-topshiriqlardan foydalanish o’quvchilar faolligini oshiradi. Savol va topshiriqlar ustida jamoa, yakka tartibda yoki juft bo’lib ishlashi mumkin. 3. O’quvchilarni savol tuzishga o’rgatish. Bu tur o’quvchilarni matn ustida ishlashlarida yaxshi natija beradi. Metodist olimlarning fikriga ko’ra, to’g’ri berilgan savol yarim javobdir. O’quvchilar matnlarni ongli ravishda o’zlashtira olsalargina, ularda matn yuzasidan savollar paydo bo’ladi. O’quvchilarga savol tuzishni o’rgatishni ikkinchi sinfdan boshlash maqsadga muvofiq bo’ladi. O’quvchilarni ongli tarzda savollar tuzishga o’rgatish uchun o’qituvchi matnga o’zi tuzgan yoki “Ona tili va o’qish savodxonligi” kitobida keltirilgan savollarni tahlil qiladi. Tahlilda “Unda kim yoki nima haqida gap boradi”, “Nega u yoki bu savol qo’yilgan”, “Savol ko’proq qaysi so’zlar bilan boshlanadi?” kabi savollarni qo’llaydi va matndan foydalanilgan holda shu savollarga javob yo’llashni o’rgatadi. Ikkinchidan, o’qituvchi o’quvchilar e’tiborini matga savollar tuzish usuliga qaratadi va savol tuzishdan avval matnni diqqat bilan o’qish, matnda ishtirok etuvchi shaxslarni ko’rsatish, savol tuziladigan qismni ajratish kerakligini tushuntiradi.

O’quvchini savol tuzishga o’rgatishning dastlabki bosqichida bu mashq jamoa bo’lib bajariladi va ta’limiy xarakterda bo’ladi; buning uchun oldin qulayroq savol ajratilib, nima sababdan u qiziqarli ekani yoki, aksincha, noqulay bo’lsa nima sabab noqulayligi tushuntiriladi. Masalan, “Ona tili va o’qish savodxonligi” kitobida berilgan Umida Sadatovanning “Vitaminjon” matnida “Vitaminlarning inson hayotidagi ahamiyati haqida bilib oladilar”. O’qituvchi o’quvchilarga “Vitaminlar ko’proq qaysi mahsulotlarda uchraydi?” deya topshiriq bergach, o’quvchilar “Vitaminlar insonlarga qanday yordam berar ekan?” kabi savollar tuzishlari mumkin.

4-sinfda Shukur Sa’dullaning “Qovun sayli” hikoyasi yuzasidan quyidagicha savol tuzish topshirig’i berilishi mumkin:

-Hikoyadagi birinchi keltirilgan xatboshini o’qing va ushbu qism yuzasidan savollar tuzing.

-Hikoyadagi birinchi xatboshida qo’llangan so’zlarning ma’nosini izohlash bo’yicha savol-topshiriqlar tuzing. (Bejirim, serto’r so’zlarining ma’nosini izohlang.)

-Hikoyada ishtirok etgan qahramonlar yuzasidan savollar tuzing.

Keyinchalik o’quvchilar muhokama va ijodiy savollar berishni ham o’zlashtirib oladilar.

4. Matnni tasvirlash. Berilgan matnni tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyat kasb etib, o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Undan to’g’ri foydalanish esa asarda muallif tasvirlagan hayotiy manzaralarni bolalar aniq tasavvur qilishlari uchun qulay imkoniyat yaratib beradi.

Matnni 2 xil holatda tasvirlash mumkin:

a) so’z orqali tasvirlash, b

) grafik tasvirlash.

So’z orqali tasvirlash o’ziga xos murakkablikka ega ish turi bo’lib, unda manzarani so’z yordamida aniq qayta tiklash talab qilinadi. So’z orqali tasvirlash, shuningdek grafik tasvirlash uchun ham o’quvchilar matnni, qahramonlarning xarakterli xususiyatlarini va

qatnashuvchilarning tashqi ko'rinishini yaxshi bilishi lozim. So'z orqali tasvirlashda so'zlarni aniq tanlash talab qilinadi, bu esa bolalar nutqini rivojlantirishda foydali bo'lgan vositalardan biri sanaladi. So'z orqali tasvirlashda o'quvchi turli maqsadlarda, chunonchi, matnga reja tuzishga asos sifatida, matnni qaytadan hikoyalashga tayyorlashda voqea ro'y bergan sharoitni aniqlashda foydalanadi. Bu tasvirlashdan mustaqil ish sifatida ham foydalaniladi. Bunda o'qituvchi matnning ma'lum bir qismidan o'quvchilar uchun ma'qul bo'lgan manzarani so'z bilan yoki grafik usulda tasvirlashni, unga muallif so'zini tanlashni hamda har xil tabiat manzaralari orqali ifodalashi mumkin.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BADIY TAHLIL KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Badiiy asarlarni janriy xususiyatriga ko'ra o'rganish. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining o'qish darslarida hargiz ilmiy jihatdan bo'lmasada amaliy jihatdan turli janrlarga mansub bo'lgan asarlar o'qib o'rgatiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi va o'qish darsliklarida, asosan, she'r, ertak, hikoya, masal, doston, rivoyat, maqol hamda topishmoq kabi janrdagi asarlar joy olgan. Bulardan tashqari ilmiy-ommabop asarlar ham o'qitiladi. Bu xildagi turli asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularning bolalarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bitta janrga oid asar matni lingvistik tomondan ham o'ziga xos xususiyatga ega. Masalan, ertak matni she'r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taalluqli asarlar matnidan, she'riy asarlar matni hikoya matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoqlar esa voqea hodisalar o'rtasidagi va predmetlar o'rtasidagi o'xshashlikni taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, maqollar mazmuni esa hayotiy misollar orqali sharhlashni taqazo qiladi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qitishda pedagogdan unga mos usullar tanlash talab qilinadi. Hikoyani o'qitish metodikasi Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum biror bir voqea, hayotning muhim bo'lgan tomonlari umumlashtirilib tavsiflanadi. "Hikoyalar ko'p hollarda insonlar hayotida bilan bir epizodni tasvirlaydi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir"⁷ Hikoyalar odatda mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr sanaladi. Kichik yoshdagi bolalarni qahramonlarning xatti harakati, portret tasviri, tashqi ko'rinishi, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shu sababli o'quvchilarni hikoya bilan tanishishtirish, uning sujetini tushuntirishga bog'lagan holda olib boriladi. Boshlang'ich ta'limda hikoyani o'qishda bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish va lug'at ustida ishlash, o'qib chiqilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan sanaladi. Hikoyaning mazmuni odatda savollar bo'yicha tahlil qilinadi. So'roqlardan esa ikki maqsadda: hikoyadagi dalillar, xulosalarni chiqarish, xulosalarni taqqoslash, mulohazalar, xatti -harakatlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, voqea-hodisalar va shu kabilarni umumlashtirish uchun hamda hikoya mazmunini tahlil qilish uchun foydalaniladi. Hikoyani o'qish darslarida bolalar tushunmaydigan iboralar va so'zlar ma'nolarini tushuntirish ham muhimdir, aks holda ular hikoyaning mazmunini tushuna olmaydilar. Hikoyani o'qitishda uning mazmuni va mohiyatini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilarning nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar

7Sulton I. Adabiyot nazariyasi - Toshkent: "O'qituvchi", 1980. 245-bet o'z

mulohazalarini aytishi va hikoya matni yuzasidan o'ylashi uchun tayyorlanishga vaqt berishi kerak.

PIRLS(ing.Progress in International Reading Literasy Study)- bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnini o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash dastur sanalib, badiiy tahlilda tajriba o'ttirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori ham xuddi shu bo'yichadir. **PIRLS** dasturi O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning bilimni baholashda qo'llangan savol, test va topshiriqlar o'quvchining o'quv materialini qanday o'zlashtirayotganligini aniqlab bilim, ko'nikma va malakalarini shakllanishiga xizmat qiladi.

Quyida biz o'zbek bolalar yozuvchisi Yayra Sa'dullayevaning 1-sinf O'qish savodxonligi darsligidagi "Izza-bir qoshiq jizza" matnini **PIRLS** dasturi bo'yicha birgalikda ko'rib chiqamiz.

Izza-bir qoshiq jizza Shunday qilib, men Azizvoydan alamimni olmoqchi bo'ldim. Nega deysizmi? Chunki u hammaning oldida meni chalib, qorga yiqitdi. Yana to'satdan... Bolalar rosa kulishdi. Azizvoyning o'zi ham xuddi Nasriddin Afandini tomosha qilayotgandek osmonga qarab: "Yana" bir dumalatsam, Qorbobo bo'lib qolasan, Irisvoy",- deydi. Qorni dumaloqlab, ochiq turgan og'ziga qopqoq qilib qo'ymoqchi bo'ldim-u, kel qo'y dedim. Qorni qoqib, endi yuraman desam, yana chalib yubordi. Bolalar battarroq qiyqirishdi. Endi ham qarab turarmidim? Shoshma, dedim o'zimga o'zim. Sumkamni yerga qo'yib, endi unga yopishaman desam... Bolalar "Biringga arpa, biringga bug'doy" deyish o'rniga jimib qolishdi. Qarasam, o'qituvchimiz kelayapti... Meni birov xafa qildimi, tamom, alamimni olmasam bo'lmaydi. Lekin bu gal alamim "ichimda" qoldi. Nima qilsam ekan? Shunday qilayki, Azizvoy hammaning oldida izza bo'lsin. Bir men ham "izza-izza - bir qoshiq jizza", deb maza qilay. Yaxshisi, sumkasiga qor solib qo'yaman... Yo'q, bo'lmaydi. Kitob maktabniki-ku, ivib ketadi. Yaxshisi... Uree, topdim! Ertasiga ertalab, maktabga ketayotganimda uydan yelim oldim. Azizvoy oyna tomonida o'tiradi. Sherigi partaning u tomoniga o'tmaydi. Shuning uchun ham u o'tiradigan joyga bemalol ancha-muncha yelim quydim. Kam quysam, qurib qoladi-da! Azizvoy keyingi vaqtlarda qo'ng'iroq chalinishiga zo'rg'a yetib kelayapti. U keladi-yu, ketidan ustoz. Bugun negadir... Kelmasa-ya? Joyiga boshqa bola o'tirsa-ya? Unda nima bo'ladi? Ana, qo'ng'iroq chalindi. Xayriyat! Ana, qadam tovushi eshitildi. Hozir hovliqib kiradi. Kiradi-yu, partasiga o'tiradi. Birinchi soat - matematika. Ustoz: "G'oziyev - doskaga!" deyдилar. Azizvoy o'rnidan turaman deydi-yu, turolmaydi. Chunki u partaga yopishib qolgan bo'ladi. Hamma kulib yuboradi. Azizvoy jovdirab qoladi. Men ham maza qilib kulaman-ey, ... kulaman...

Yayra Sa'dullayeva

"Izza-bir qoshiq jizza" hikoyasi yuzasidan savollar

1.G'oziyev- kimning familiyasi edi? Azizvoy 1 Izzatvoy 2 Irisvoy 3

2. Bo'g'inlarni o'z o'rniga to'g'ri joylashtiring va kalit so'zlarni toping va bolalarning bu ishi to'g'ri yoki xatoligini ayting? ring-bi-ga pa-ar doy-bug' bi-ga-ring

3. Sizningcha bolalardan qaysi biri yaxshi to'g'ri yo'l tutdi?

4. Hikoya qahramonlari kimlar edi? a) Azizvoy va Irisvoy
b) Azizvoy va G'oziyev Irisvoy, o'qituvchi va o'quvchilar
c) G'oziyev Azizvoy va Irisvoy, o'qituvchi va o'quvchilar .

5. Rasmlarni voqealar ketma-ketligida joylashtiring.

1 2 3

6. Xayriyat! Ana, qadam tovushi ham eshitildi. Hozir hovliqib kiradi. Ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosini izohlang Hovliqib-

7. Diagrammani bajaring Berilgan gaplar kimga tegishli ekanligini toping va mos ranglarga bo'yang. Bir men ham "Izza-izza bir qoshiq jizza", deb maza qilay Bolalar Yana bir dumalatsam, Qorbobo bo'lib qolasan. Irisvoy Kitob maktabniki-ku, ivib ketadi Azizvoy Biringga arpa-biringga bug'doy Irisvoy

8. Tushurib qoldirilgan so'zni toping. (batarroq, battarroq, battaroq) Bolalar _____ qiyqirishdi.

9. Ma'lumotlarni to'g'ri yoki noto'g'riligini toping? Irisvoy Azizvoyni Nasriddin Afandiga o'xshatdi Azizvoy Irisvoyni Nasriddin Afandiga o'xshatdi To'g'ri Noto'g'ri To'g'ri

Birinch soat - matematika Noto'g'ri To'g'ri

Ertalab maktabga ketayotganimda do'kondan yelim oldim Noto'g'ri To'g'ri Noto'g'ri

10. Nima deb o'ylaysiz chindan ham Azizvoy Irisvoy aytgandek yelimlangan stulga o'tirib oldimi. Siz uning o'rnida bo'lganizda qanday yo'l tutar ediz.

"Izza - bir qoshiq jizza" hikoyasi yuzasidan savollarga javoblar

1. Azizvoyni

2. Biringga arpa-biringga bug'doy. Bolalarning bu ishi xato edi. (3, 1, 2)

3. Tinglovchining fikrini baholang.

4. c) G'oziyev Azizvoy va Irisvoy, o'qituvchi va o'quvchilar

5 6. Hovliqmoq-shoshqaloqlik bilan

7 Bir men ham "Izza-izza bir qoshiq jizza", deb maza qilay Yana bir dumalatsam, Qorbobo bo'lib qolasan. Bolalar Kitob maktabniki-ku, ivib ketadi Irisvoy Biringga arpa-biringga bug'doy Azizvoy

8. battarroq Irisvoy

9. Irisvoy Azizvoyni Nasriddin Afandiga o'xshatdi To'g'ri Azizvoy Irisvoyni Nasriddin Afandiga o'xshatdi Noto'g'ri To'g'ri

Birinch soat - matematika Noto'g'ri To'g'ri

Ertalab maktabga ketayotganimda do'kondan yelim oldim Noto'g'ri

10. Tinglovchining fikrini baholang Tajriba sinovidan oldingi natijalar.

Nazorat sinfi 3-"A" sinf To'g'ri

UMUMIY XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz joizki, Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilarda badiiy tushunchalarni shakllantirib borish kelajakda adabiyotshunoslikka kitob orqali ijod olamiga qadam qo'yishlariga bir turtki bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda badiiy asarlarni o'qib tushunishi va mazmun-mihiyatini idrok qilishiga tayyorlash ta'lim jarayoning har bir bosqichida ularning intellektual salohiyati, ruhiyati, intilishlari va qiziqishlarini ham hisobga olishni taqazo etadi. O'qituvchilarni o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash sohasidagi xalqaro loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirishda hamda o'quvchilarni matn badiiy tahlil qilishga o'rgatishda o'quvchilarning yozma va og'zaki nutq savodxonliklarini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish bo'yicha il'or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish, o'quvchilar mustaqil ta'lim olishi uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish fanidan asarni badiiy tahlil qilish bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish kabi vazifalarni amalga oshirsak o'quvchilarda badiiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirishga erishgan bo'lamiz. Biz bu dissertatsiyamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn va uni ustida ishlash, matn tanlash jarayonida nimalarga e'tibor berishimiz lozimligini ko'rib chiqdik hamda bu yuzasidan tavsiyalar berdik. Hamda o'qish darslarida badiiy asarlarni janr xususiyatlariga ko'ra o'rganish bo'yicha fikrlarimiz, takliflarimizni bildirdik. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini tahlil qilishda har xil usullardan foydalaniladi. Bolalar adabiy janrlarida asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o'qituvchi rahbarligida asarning rejasini tuzadilar. Darslarni shu tarzda olib borish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish salohiyatini oshirishga erishish mumkin. Badiiy asarlarni tahlil qilishga qaratilgan darslarning maqsadlaridan biri o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishdir. Xalqaro baholash dasturlaridan foydalanilgan holda darslarni tashkil qilish ham o'quvchilarda asar haqida to'liqroq ma'lumotlarga ega bo'lishiga olib keladi. Badiiy asarlarni har birining xususiyatlarini hisobga olgan holda dars jarayoniga yondashilsa o'quvchilar asarning voqealar rivojiga, undagi asosiy mazmuni anglab yetadi. Ta'lim tizimining maqsadi ham jahon talablariga javob bera oladigan yetuk, ilimli bo'lgan yoshlar avlodni tarbiyalashdir. Bizning bugungi kunda ta'lim tizimida olib borayotgan ishlarimiz ana shu maqsad yo'lidagi harakatlardan biridir. Mazkur ertak va asarlar o'zining yumorga boyligi bilan ajralib turadi. Asarlardagi uydirmalar shunchalar hayratlanarli hamda kulguliki, oqibatda o'quvchilar bo'layotgan voqealarga hayrat nigohi va xushchaqchaq tabassumi bilan javob qaytarganini ko'rish mumkin. O'ziga ortiqcha baho berib yuborib, men toshlarni chilparchin qilmoqchi bo'lgan to'lqin baland toshlar ustidan oshib ketib chuqurlikka tushib qolib. Bir umrga shu yetda ko'lmak suvi bo'lib hayot kechirganligini guvohi bo'lamiz. Bejiz aytishmagan "Birovga chog' qazisang - o'zing yiqilasan" - deb. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek va jahon bolalar adabiyoti asarlaridan o'quvchilar yangicha dunyoqarash, turli xil obrazlardan o'ziga yarasha taassurotlar hamda ta'limiy-tarbiyaviy xulosalarni olishlari mumkin. Bevosita, bolalar adabiyoti orqali dunyo bolalarining xarakteristikasi bilan tanishish hamda yangi atamalar bilan lug'at boyligini oshirishga zamin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy qoidalar(3-sahifa).
2. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-4947-son, 2017-yil 7-fevral. 3. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5712 sonli Farmoni. T. 2019 yil 29-aprel.
3. Ona tili o'qitish metodikasi. K.Qosimova S.Matchonov
4. 1-sinf "O'qish savodxonligi" darsligi Novda Toshkent-2023
5. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturi orqali o'qish , matematika, tabiiy-ilmiy savodxonliklarini o'rganish texnologiyasi" magistrlik
6. Azimova I., Mavlonova K., Quronov A., Tursunov Sh., 1-2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
7. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. 2000-2007-yy. 7. Doniyorov A.
8. Usmonov A., Ergasheva Z. Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari: ta'lim va tarbiya integratsiyasi xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiyasi. 2022. 19- b.
9. Elektron ta'lim saytlari